

O‘zbek va ingliz tillaridagi lingvokulturemalarning qiyosiy tahlili

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,

BuxDU 1-bosqich tayanch doktoranti

Sattorova Maftuna Shavkatovna

sattorovamaftuna@buxdupi.uz

Annotatsiya: Maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvokulturemalarning xususiyatlarini qiyosiy o‘rganadi. Unda tilning madaniyat va jamiyat bilan bog‘liqligi, shuningdek, madaniy birliklarning tillararo tarjimasida uchraydigan muammolar haqida so‘z boradi. Shuningdek, lingvokulturemalarning til va madaniyatlar orasidagi aloqalarni ko‘rsatuvchi muhim vosita ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturema, lingvistika, frazeologik birliklar, til va madaniyat, paremiya, lingvokulturologiya, madaniyatshunoslik.

Сравнительный анализ лингвокультуры узбекского и английского языков

Преподаватель Бухарского государственного

педагогического института, 1-курс докторант БухГУ

Сатторова Мафтуна Шавкатовна

sattorovamaftuna@buxdupi.uz

Аннотация: В статье сравниваются характеристики лингвокультуры английского и узбекского языков. В ней говорится о взаимосвязи языка с культурой и обществом, а также о проблемах, возникающих при межъязыковом переводе культурных единиц. Также подчеркивается, что лингвокультуры являются важным инструментом, показывающим связи между языками и культурами.

Ключевые слова: лингвокультурема, языкознание, фразеологизмы, язык и культура, паремия, лингвокультурология, культурология.

Comparative analyses of linguocultures in Uzbek and English languages

Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute,

1st course doctorate student (PhD) of BSU

Sattorova Maftuna Shavkatovna

sattorovamaftuna@buxdupi.uz

Abstract: The article comparatively studies the features of linguocultures in English and Uzbek. It discusses the relationship of language with culture and society, as well as the problems encountered in the interlingual translation of cultural units. It is also

emphasized that the linguocultureme is an important tool for demonstrating the connections between language and cultures.

Key words: linguocultureme, linguistics, phraseological units, language and culture, paremia, linguoculturology, culturology

Kirish. Xalqlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniyatlararo munosabatlarni shakllantirish asnosida boshqa tillarga murojaat etish va o'rganish kuchaymoqda. Boshqa tillarni o'rganish esa o'sha xalqning madaniyatini o'rganish, ya'ni, his qilish imkonini beradi. Shu ma'noda oxirgi paytlarda tilning madaniyat bilan o'zaro munosabatini o'rganish favqulodda dolzarb masalaga aylandi. Shu asnoda tilshunoslikda lingvokulturologiya deb ataluvchi maxsus yo'nalish, tadqiqot ob'ekti paydo bo'ldi. Ilmiy tadqiqotlarda lingvokulturema termini qo'llanila boshlandi.

Lingvokulturologiya o'rganish ob'ektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish ob'ektiga bo'lgan yondashuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi, hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Ma'lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiy ning yozishicha: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo'lishi shart". Til va madaniyatning ana shunday o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganish imkonini beradi.

Sohalararo kompleks birlik bo'lgan «lingvokulturema» terminini tilshunoslikda ilk bor qo'llagan V.V.Vorobyevning talqiniga ko'ra, "Lingvokulturema – bu lingvistik va ekstralingvistik (tushuncha yoki predmet) mazmuni dialektik birligini tashkil etgan kompleks birlikdir".[8,67] Bu birlik so'zga nisbatan chuqur ma'noga ega. Odatiy belgi – ma'noga kulturemaning tildan tashqari mazmuni, ya'ni madaniy tushuncha komponenti ham qo'shiladi. Lingvokulturemalar semantikasida ma'lum bir xalqning urf-odat va an'analari, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, xo'jalik muhiti bilan tutash milliy-madaniy xususiyatlari aks etishi sababli ular bilan bog'liq muammolar tadqiqotchilarni uzoq yillardan beri qiziqtirib kelmoqda. Ko'proq amaliy tabiatga ega bo'lgan lingvokulturologiya fani XIX asrda til hodisalarini antropologik paradigmaning hosilasi sifatida o'rgana boshlagach, ancha dolzarblik kasb etdi. XX asrning oxirgi choragiga kelib lingvokulturologiyaning Yu.S.Stepanov, N.D.Arutyunova, V.N.Teliya, V.Vorobev, V.Shaklenay maktablari shakllandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

V.Maslovaning fikricha: "lingvokulturologik birliklarni ifodalovchi lingvomadaniy

birliklar lingvokulturemalardir”. [3,108] Sliskin fikriga ko‘ra, “lingvokulturogik konsept” – bu til, anglash va madaniyatni kompleks o‘rganishga yo‘naltirilgan shartli mental birlikdir. Uning quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud: a) mavjudlikning kompleksligi; b) mental tabiat; d) ahamiyatlilik; e) shartlilik va mavhumlik; f) o‘zgaruvchanlik; g) til vakili ongi orqali chegaralanish; h) uch komponentli struktura; i) ko‘p murojaat qilish; j) ko‘p vaznli; k) metodologik ochiqlik, ko‘p klassifikatsiyalilik. Tilda madaniyatning o‘ziga xos tomonlari namoyon bo‘lishini V. fon Humboldt (XIX asr) ilmiy aniqlab, turli til shakllarida tafakkur usullaridagi farqni va voqelikni tushunishdagi o‘ziga xoslikni asosladi. V.V.

Vorobyevning fikricha, lingvokulturemalar: 1) konnotativ ma’noga ega va belgi-funksiyaga aylangan; 2) bir nechta konnotativ ma’nolarda ifoda etilishi mumkin; 3) qabul qiluvchi (o‘quvchi yoki tinglovchi)ning ongida faollashishi yoki faollashmasligi mumkin; 4) ular paydo bo‘lgan g‘oyaviy kontekst mavjud ekan, faol “yashashda davom etadi” [8;52].

O‘zbek tilshunoslik ilmda ham bu yo‘nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, N.Sayidrahimovanning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, shuningdek, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning “Matnning antropotsentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasini belgilash mumkin.

Lingvokulturemaning tuzilishi boshqa til birliklariga qaraganda ancha murakkab: u o‘zida ham lisoniy taassurot, ham tildan tashqari muhitni (situatsiya, realiya) namoyon etadi. Shunday qilib, tilni yaxshi biladigan kishida har qanday so‘zga madaniy oreol hamrohlik qiladi, busiz matnni to‘g‘ri interpretatsiya qilish mushkul va ba’zi hollarda umuman ilojisiz. Til birliklarini madaniylashtirish jarayoni u yoki bu millat doirasida madaniy assotsiatsiyalar tarmoqlari majmuasi yaratilishiga olib keladi. O‘.Q. Yusupov lingvokulturemani quyidagicha talqin etishni tavsiya etadi: “Lingvokulturema o‘z semantikasida madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligidir. Ular so‘z (tub, yasama, qo‘shma va murakkab so‘zlar), so‘z birikmalari, iboralar, gap, paremiya, murakkab sintaktik butunlik, matn va hokazolar bo‘lishi mumkin” [9,50-61].

Bugungi kunda tadqiqotchilar lingvokulturemaning quyidagi xususiyatlarini aniqladilar: 1) Lingvokulturema atash ma’nosini ifodalaydi; 2) Lingvokulturemalar tuzilishi jihatidan xilma-xil: so‘zdan tortib butun matn shaklida ham bo‘lishi mumkin; 3) Lingvokulturemalar o‘z manbai, kelib chiqish xususiyatlariga ko‘ra o‘xshash va farqli jihatlariga ega [7,301].

Lingvokulturemalarni tasniflashda rus tilshunosi V.A. Maslovaning hissasi beqiyos. U lingvokulturemalarni 9 xil turga ajratadi: 1) tilning ekvivalentsiz lug‘at qatlami – realiyalar (milliy liboslar, taomlar, marosim va bayramlar, an’analar, ayrim buyum nomlarini o‘z ichiga oladi) va lakunalar; 2) mifologemalar – arxetiplar, afsonaviy qahramonlar, obrazlar, marosim

va udumlar, rituallar; 3) tilning paremiologik fondi (maqollar va hikmatli soʻzlarni oʻz ichiga oladi); 4) tilning frazeologik fondi; 5) etalonlar, stereotiplar, simvollar; 6) metafora va obrazlar (timsollar); 7) turli tillarning stilistik qatlamlari (adabiy/noadabiy shakllar va hk.); 8) nutqiy axloq va feʼl-atvor; 9) nutq etiketi[4,6-18].

Tadqiqot metodologiyasi.

Lingvokulturema tushunchasiga turli tomondan koʻp marotaba murojaat qilingan boʻlsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hanz dolzarb mavzuligicha qolmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mavjud maʼlumotlar jamlanib, lingvokulturemalarning qiyosiy tahliliga alohida eʼtibor qaratildi. Maqolada tasniflash, tavsiflash, hamda lugʻaviy va lingvopoetik tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Lugʻaviy tahlil: Lingvokulturemaning lingvistik asoslari va uning turli tillardagi ifodalanishi tahlil qilinadi. Milliy madaniyat bilan bogʻliq lugʻat birliklari, frazeologizmlar va iboralar oʻrganiladi.

Tavsifiy-tahliliy usullar: Olingan maʼlumotlar sifatida sifatli va miqdoriy tahlil usullari qoʻllaniladi. Etnografik usullar yordamida milliy madaniyatni lingvokulturemalar orqali qanday ifodalash mumkinligi aniqlanadi.

Taqqoslash tahlili: Turli tillardagi lingvokulturemalarni taqqoslash orqali umumiy va oʻziga xos jihatlari aniqlanadi.

Muhokama va natijalar.

Lingvokulturemalarni qiyosiy tahlil qilishdagi eng katta muammo madaniyatlar oʻrtasidagi farqlarni ajratishdir. Muayyan madaniyatga mansub aholi biror narsaga oʻz dunyoqarashidan kelib chiqib qaraydi. Bir-biriga ekvivalentdek koʻrinadigan soʻzlar lingvomadaniy jihatdan qaralganda aslida ekvivalent boʻlmasliklari mumkin. Misol uchun, Amerikada “qoʻy” soʻzini – oʻylamasdan ish qiladigan, kamgap, bosiq insonlarga nisbatan qoʻllashadi [7,18-20]. Oʻzbek tilida esa “qoʻy” soʻzi ijobiy boʻyoqqa ega va u yuvoshlik, muloyimlik, moʻmin-qobillikni ifodalaydi. Insonlarga nisbatan asosan nutqda ushbu soʻzning “qoʻymijoz” shakli qoʻllanilib, oʻzbek tilida “yuvosh, muloyim, moʻmin-qobil” degan maʼnoni anglatadi. Bunda “qoʻymijoz” soʻzi ingliz tilida “a peaceful man”, “a docile lamb”, “a generous man” kabi oʻxshatishlar bilan izohlanishi mumkin. Avvalo ushbu oʻxshatishlar tarkibida kelgan soʻzlar maʼnosi bilan tanishib chiqsak. Ingliz tilida “peaceful” (calm and quiet) – “bosiq, yuvosh”, “generous” (kind, friendly, and helpful) – “mehribon, doʻstona, yordamga shay” kabi sifatlarni anglatgan holda shaxslarga nisbatan qoʻllaniladi. Har ikkala sifat ham tarjima matnida muqobil variant boʻla olgan, lekin asliyat matnidagi kabi oʻxshatishning boʻyoqdorligi, jozibasi saqlanmagandek goʻyo. Shunisi eʼtiborga loyiqlik, zoonimlar asosidagi obrazli lingvistik birliklar asosan milliy oʻziga xoslik bilan ajralib turadi. Turli xalqlar bir xil hayvonlarni turli tushunchalar bilan bogʻlashlari va ularga turli xil kontseptual xususiyatlarni berishlari bilan izohlanadi. Buni ingliz, oʻzbek tillarining qiyosiy toʻplam ifodalari bilan koʻrsatish mumkin:

work as a horse - eshakdek ishlamoq

eat like a horse – bo‘ridek yemoq
as silly as a goose, as silly as sheep -tovuqmiyya
as strong as a horse -fildek kuchli
to swim like a duck- baliqdek suzmoq

Keltirilgan misollar shuni isbotlaydiki, turli tillarda bir xil kontseptual xususiyatlar butunlay boshqacha assotsiatsiyalarni uyg‘otuvchi mutlaqo boshqa obrazlar orqali ifodalanadi va buni milliy dunyo idrokining o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Yuqoridagi iboralar kabi tilimizda uchraydigan boshqa iboralarni ham to‘g‘ri tushunish va madaniyat elementlarini o‘zida aks ettirish uchun bir-biriga qarama qarshi bo‘lgan ikki xil faktorni e‘tiborga olish lozim. Masalan, ba‘zi hayvonlar ikki tilda ham ramziy ma’noga ega bo‘lganligi umumiy ma’lumotdir. Masalan: Arslon – kuch-qudrat ramzi; Bo‘ri - makkorlik ramzi; Tulki - ayyorlik ramzi; Mushuk - sehrning ramzi; Boyqush - donolik ramzi; It - sodiqlik ramzi; Qo‘zi - itoatkorlik ramzi; Kabutar - tinchlik ramzi. Ta’kidlash joizki, ramzlar obrazlilikni ifodalashning qudratli vositalaridan biri bo‘lib, madaniy ma’lumotlarni yetkazishda, tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ifodalashda eng muhim o‘rin tutadi.

Insonning hayot kechirishida kerakli predmetlar hamda yuzaga keladigan voqea-hodisalarni madaniyat vositasi deb fikr yuritisa ham bo‘ladi. Masalan, quyoshni yoki oyni madaniyatga kiritish bir tomomdan mumkin emasdek ko‘rinadi. Ammo barcha xalqlar madaniyatida ushbu tushunchalarning mavjud ekanligi ma’lum. Lekin ba‘zi salqin ob-havo sharoitida yashovchi Yevropa xalqlari (slavyanlar va germanlar) quyoshni issiqlik, ardoqlash va iltifot belgilari sifatida ijobiy baholaydi. Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida ularni qiyin ahvolga soluvchi jazirama haroratga tenglashtirib, salbiy baholanadi. Demak, quyoshni faqat tabiat hodisasi emas, balki madaniyat mahsuli sifatida tushunsa bo‘ladi. Janubda yashovchi xalqlar madaniyatida oy alohida e’tirof bilan tilga olinadi. Ruslar ongida u qorong‘ilik, oxirat bilan bog‘lanib, ba’zida hayot- va mamot bilan (жить «под луной», » в подлунном мире» - hammaning hayoti birdek sharoitda kechadi) tasavvur qilinsa, oy nuri boshqa slavyanlarda homilador hamda norasidalar uchun havfli, ziyon keltiradigan hodisaga taqqoslanadi. Vetnamliklarda esa boshqa janubiy Osiyo xalqlaridagi kabi oyga munosabat tomoman boshqacha, ya’ni ular oy kalendari bo’yicha yashashadi, maxsus nishonlanadigan Oy bayrami bolalarning sevimli bayrami hisoblanadi. Go’zal, nozik va beg‘ubor yosh qizlar oyga o’xshatiladi, sevishganlar oy yorug‘ida guringlashib, unga bag‘ishlab she’rlar to’qishadi va qo’shiqlar aytishadi. Shuning uchun Vetnam xalqi hayotidagi barcha ezguliklarni oy orqali tasavvur etadilar. Shu kabi oyga munosabat - o‘zbek xalqiga ham mansub ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Chunki o‘zbeklarda oy quyoshdan nur olib, yog‘du soluvchi samoviy jismgina emas (“oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi” - maqol), balki “go’zal, chiroyli yuz” (oy yuzini qora chimmat zulmidan qutiltirg‘il. “juda go’zal, juda ham chiroyli”) (“Oy desa oyga, kun desa kunga o’xshaydi”), safarga ketayotgan kimsaga yaxshilik tilash (“Oy borib omon qayt”) ma’nolarida ishlatiladi [5, 205]. Shuni aytib o‘tish joizki, rus xalqida ham “лицо как луна” iborasi go’zalikka tan berishni anglatadi .

Bunga o'xshagan misollarni boshqa xalqlar madaniyatida ham uchratish mumkin. Go'zallikni ingliz lingvomadaniyatida "as beautiful as a rainbow"-kamalakdek chiroyli, "as beautiful as a picture"(suratday), "as beautiful as aspring time"(bahorday) o'xshatishlari bilan beriladi. Turli xalqlar madaniyatida mavjud yuqorida keltirilgan o'ziga xos alohidaliklarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Tadqiqotlarda rang bildiruvchi leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari va ularning milliy mentalitetni ifodalashdagi muhim ahamiyati haqida ma'lumotlar qayd etilgan. Rang bildiruvchi leksemalarning mumtoz manbalardagi konnotatsiyalari yoritilgan. Jumladan, S. Utanova Alisher Navoiy asarlaridagi ranglar simvolikasini tahlil qilgan. Yetti xil kamalak (spektr) rangining bir-biriga aralashishi orqali 280dan ortiq rang-tus hosil qilish mumkinligini, ranglar insonlar ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi omil ekanini ta'kidlaydi hamda sharq mamlakatlarida haftaning har bir kuni o'ziga xos rang bilan yuritilishini aytib o'tadi.[1,80] Sharq mamlakatlarida yer markazi sariq rang bilan ifoda etilgani, sariq rang turkiy xalqlar tarixida davlat ramzi sifatida qaralgani qayd etilgan. Olima sariq rang-quyosh, hayot, muqaddaslik kabi ramziy ma'nolarga ega ekanligini, qadimgi xitoyliklarda u baxt, shodlik mazmunida ishlatilgan bo'lsa, Yevropada, aksincha, nafrat tuyg'usini ifodalaganini ta'kidlaydi. Rangning psixologik xususiyatlari kommunikativ muloqotning ko'rinishidir. Insonlar rangni fizik nuqtayi nazardan bir xil anglaydilar, ammo ranglarni qabul qilish farqli bo'ladi (Yevropa madaniyatida oq rangdagi kiyim soflikni, tozalikni, bayram, quvonchni bildiradi, sharq xalqlarida "o'lim", "motam", "g'am"; tushunchalarini ifoda etadi). Rus tilida "sog'inch" ramzi *yashil rang* bilan, ingliz tilida *ko'k, havorang* bilan anglashiladi[1,85]

Rang inson ongidagi predmet obrazi, sensor xususiyatlariga ko'ra farqlanishi, rangga nisbatan har xil qarashlar mavjudligi, narsa-buyumlar ranglar orqali farqlanishi, rang turli madaniyatlarda o'ziga xos tarzda tanlanishi va turli predmetlar bilan assotsiatsiyanishi tahlil qilingan. Masalan, black "qora" ingliz xalqida yer, kuch bilan, o'zbeklarda o'lim, qayg'u, g'am (qora kun,) bilan "qizil" rang o'zbeklarda hayot, "red -qizil" inglizlarda telefon budkasi bilan assotsiatsiyanishi aytilgan. Ranglar xalqning sotsial va gender jihatlariga ham bog'liqligi, ingliz xalqining issiq va sovuq ranglarga munosabati geografik joylashuvi bilan ham belgilanishi ta'kidlangan. Har ikki xalqda ko'p qo'llaniladigan ranglar:blue - "ko'k", red -"qizil", purple - "siyohrang", green-"yashil", white - "oq" keltirilgan. Ranglar semantikasidagi madaniy-tarixiy taraqqiyot ranglar ramzida universal jihatlar borligini ko'rsatadi. Asosiy rang-ramzlar hisoblangan *balack(dark)* - "qora", white - "oq", red - "qizil" dunyo xalqlari uchun ularning qaysi til sohibi ekanliklaridan qat'i nazar universal hisoblanadi.[1,90-101] Rang konseptlari turli tillarda o'ziga xos assotsiatsiyanadi. Rang bildiruvchi leksemalar rang mohiyatiga ega bo'lmagan estetik va simvolik ma'nolarni ifodalashga ham xoslanishi mumkin O'zbek va ingliz diskursida ranglar bir xil madaniy munosabat bildirishi bilan bir qatorda, oppozitsiya holati ham uchraydi. O'zbek xalqida ko'zlarning qora rangda bo'lishi go'zallik timsoli bo'lib, aksincha ko'k va yashil rangdagi ko'zlar xunuklik ramzi sifatida qabul qilinsa, inglizubon xalqlarda ko'k hamda yashil rangli

ko‘zlar chiroyli insonlarga xos deb hisoblanadi.

Xulosa. Lingvokulturemalar badiiy matnlarning madaniy va estetik qirralarini ochib beradi, ular orqali matnlarning mazmuni, personajlari va ularning o‘zaro munosabatlari yanada yaxshiroq tushuniladi. Badiiy asarlar til va madaniyat o‘rtasidagi chuqur aloqani ko‘rsatadi va madaniy an‘analarni saqlash, identifikatsiyani mustahkamlash va matnni tushunishni yaxshilash kabi vazifalarni bajaradi. Shuning uchun, lingvokulturemalarni tahlil qilish badiiy matnlarning yanada chuqurroq anglanishiga yordam beradi va ularning madaniy qiymatini oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, matnlar kirar ekan, qiyosiy tahlilda lingvokulturologik yondashuvning asosini ham aynan ular tashkil etishini ta’kidlash lozim. Shuningdek, tarjimaning madaniyatlararo o‘xshash va tafovutli jihatlarini ham aynan shu lingvokulturemalar tarjimasida kuzatiladi. Natijada lingvokulturemalar o‘zida nafaqat madaniy, balki lingvistik, etnopsixologik va ekstralingvistik omillarni ham mujassamlashtirishiga guvoh bo‘lish mumkin. Chunki, lingvokulturemalar tarkibi belgi-ma’no-tushuncha-predmetlardan tashkil topib, ular inson madaniyati va tilining uyg‘unlashuvi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Amanlikova.N, O‘zbek tilida sifatga oid leksemalarning lingvokulturologik tadqiqi masalalari. Monografiya. – Toshkent. “Transport” 2021.– 136 bet.
- 2..Gorushkina A. V. Лингвокультуры в структуре современного поэтического дискурса сетевого автора Али Кудряшевой: функциональный аспект изучения: avtoreferat: - Cherepovets, 2019.
- 3.Maslova V.A. Введения в лингвокультурологию. – М.: Наследие, 1992.
- 4.Maslova V.A. Человек в зеркале сравнения // [http: / www gumer. Info / biblioter – Burs / Linguist / maslova / 06 / php](http://www.gumer.info/biblioter-Burs/Linguist/maslova/06/php).
- 5.Maxmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati.-T: Ma’naviyat, 2013
- 6.Temigazina Z.K. Лингвистическая аксиология: оценочные высказывания в русском языке. – Moskva: Flinta, 2015. - 247 b.;ISBN 978- 5-9765-2118-6
- 7.Usmonov, F. (2019). Linguocultural competence as the means of identifying images in fixed similies. Theoretical & Applied Science, (5), 17-20.
- 8.Vorobyev V.V. Лингвокультурология. - Москва: Российский ун-т дружбы народов, 2008. - 336 с.: ил., табл.; 22 см.; ISBN 978-5-209-02717-1
- 9.Yusupov O‘.Q. Tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim istilohlar. Filologiya masalalari. – T. 2011